

ILK O'SPIRINLIK VA YOSHLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Axmadjonova Shaxruza

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolda ilk o'spirinlik davrining psixik xususiyatlari, ilk o'spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ilk o'spirinlik davri, o'spirinlik, o'tish davri, yoshlik davri, xotira, jinsiy rivojlanish, psixologik xususiyat.

Аннотация: В данной статье говорится о психических особенностях раннего подросткового возраста, интеллектуальном и эмоциональном развитии в раннем подростковом возрасте.

Ключевые слова: ранний подростковый возраст, подростковый возраст, переходный период, юношеский период, память, половое развитие, психологические особенности.

Annotation: This article discusses the psychological characteristics of early adolescence, intellectual and emotional development during early adolescence.

Keywords: early adolescence, adolescence, transition period, youth, memory, sexual development, psychological characteristics.

KIRISH

Ilk o'spirinlik davri "kamolot bo'sag'asi" deb ta'riflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o'z ichiga oladi. Psixologiya fani o'spirinlik muammosini kompleks o'rganishni da'vat etadi.

Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur'ati bilan uning bosqichlari ijtimoiy etilish muddati bilan hamma vaqt ham to'g'ri kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi ilk o'spirinlarning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o'rtacha ikki-uch yil avval etilmoqda. Fiziologlar bu jarayonni 2-darajali jinsiy belgilarning paydo bo'lishiga qarab, 3-ta bosqichga ajratadilar:

Akseleratsiya munosabati bilan o'spirinlik yoshining chegarasi endi 15-16 dan 18 yoshgacha bo'lmoqda. Demak, o'spirinlik ham oldin boshlanadi. Lekin, bu taraqqiyot davrining qonkret mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o'rni, ularning mavqei, ular egallaydigan bilimlarning hajmi va bir qator boshqa faktorlar ijtimoiy sharoitlarga bog'liqdir.

Ilk o'spirinlik yoshidagi bolalar bu 15 yoshdan 17-18 yoshgacha bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilaridir. O'spirinlik – bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan etilishi, o'z taqdirini o'zi hal qilishi, ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishi davri, fuqaro va vatanparvarning ma'naviy sifatleri tarkib topadigan davrdir. Faol ijtimoiy hayot, o'qishning yangi xarakteri (mustaqil bilim olish) yigit va qizlarda dunyoqarashning shakllanishiga, ularda mustaqillik va burch hissining tarkib

topishiga, bilimning turli sohasida ularning ijodiy qobiliyatini avj oldirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ilk o'spirinlar mustaqil hayot sohasida yaqin istiqbolga ega bo'lar ekanlar, o'zlarining hayot yo'llarini belgilab olishga, bundan buyongi mehnat faoliyatlarining aniq istiqbollarini aniqlab olishga, o'zlarining kelgusi ixtisoslarini tanlashga intiladilar. Shu munosabat bilan kasb-hunarga oid qiziqishlar tarkib topadi va yanada barqarorroq bo'lib qoladi, yigit va qizlar o'z kelajaklari haqida jiddiyroq o'ylay boshlaydilar.

Ilk o'spirinlik davridagi jismoniy rivojlanish ustida to'xtalib o'tamiz, bu narsa quyidagi sabablarga ko'ra muhimdir. Jismoniy rivojlanishning ayrim xususiyatlari ilk o'spirin shaxsining ayrim sifatlari rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi va uning bundan keyingi hayot faoliyati sohasidagi imkoniyatlarini bir qadar belgilab beradi. Birinchidan bu o'rinda kasb tanlash nazarda tutiladi, bu esa ma'lum darajada yigit va qizlarning individual jismoniy tuzilishi xususiyatlariga ham bog'liqdir. Ikkinchidan, jinslarning o'zaro mayli ta'sir ko'rsatadiki, bunda jismoniy rivojlanish xususiyatlari ancha muhim rol o'ynaydi. O'zining jismoniy kuchini va jozibadorligini, sog'lomligi va mukammalligini his etish yigit va qizlarda o'ziga ishonch, dadillik, tetiklik, optimizm va xushchaqchqlik singari sifatlarning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bo'yning o'sishi o'spirin qizlarda 15-16 yoshgacha, o'g'il bolalarda 17-18 yoshgacha davom etadi. Bu yoshda muskullar kuchi tez o'sadi. Masalan, 18 yoshli bola muskul kuchi 12 yoshli bolaga nisbatan 2 baravar ko'p bo'ladi. Jismoniy taraqqiyot, asosan, to'g'ri ovqatlanish rejimiga va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishiga ko'p jihatdan bog'liq. Jinsiy taraqqiyot jihatdan bu Yoshdagi ko'pchilik yigit va qizlar postpubertat (tugallanuvchi) davrda bo'ladilar. Bularning jismoniy rivojlanishi katta yoshdagi odamning jismoniy rivojlanishidan kam fark qiladi. Bo'yning va organizmning notekis o'sishi va rivojlanish davri tugallanadi hamda jismoniy rivojlanishning nisbatan birmuncha tekis davri boshlanadi. O'spirinlik yoshida jismoniy sifatlari (bo'y, og'irlik) nisbatan barqaror darajaga etgan bo'ladi. Shuningdek, muskul kuchi va ishchanlik qobiliyati sezilarli darajada ortadi.

Ilk o'spirinlik davrini ikkinchi o'tish davri deb hisoblash mumkin. Agar birinchi o'tish davri ko'proq bolalikka yaqin bo'lsa, ikkinchi o'tish davrida bo'lgan o'spirin ko'proq yoshlik davriga yaqindir va shu jihatidan o'rganiladi hamda tadqiq etiladi. Ilk o'spirinlik davri, asosan, unda mustaqil hayotning boshlanishi (o'rta maktabni tamomlab, litsey, kollejlarga kirishi) bilan xarakterlanadi. Hayotdagi bu o'zgarishlar ilk o'spirinning shaxsiga, o'z-o'zini anglashiga ta'sir ko'rsatadi. O'smirlardan farqli o'laroq ilk o'spirinlar katta hayotni tasavvur etmaydilar, balki unda ishtirok etadilar.

Ilk o'spirinlarning mustaqilligi ortishi bilan kattalarning unga munosabatlari ham o'zgaradi. Kattalar o'smirlarga ko'proq bola deb qarasalar, ilk o'spirin yoshdagilarga katta odamdek munosabatda bo'ladilar. Ilk o'spirinlar hayotda o'z o'rnini topishga nisbatan intilishi anglangan holatda bo'ladi. U o'z hayotiy rejalarini amalga oshirish uchun harakat qila boshlaydi va ma'lum bir kasbni egallay boshlaydi yoki shu soha bo'yicha akademik litseylarda o'qishini davom ettiradi. O'spirinlar tanlagan sohalari yoki kasblarida juda katta yangiliklar, kashfiyotlar qilgilari keladi, lekin asta-sekinlik bilan yangilik va kashfiyotlar qilish uchun ularda bilim va tajriba etishmayotganligini, buning uchun ko'prok o'qish va o'rganishlari kerakligini anglay boshlaydilar.

O'spirinlar (16-18 yoshlar) o'zlarining psixologik xususiyatlari bilan boshqa yosh davrdagi bolalardan keskin farq qiladilar. Jismoniy hamda aqliy jihatdan voyaga etgan, kamolotga erishgan, dunyoqarashi, o'z-o'zini boshqarishi kabi etuk insoniy xususiyatlari tarkib topgan bo'ladi. Ular vazmin, mulohazali bo'ladilar, katta yoshdagilarga hurmat-ehtirom bilan qaraydilar. Ular uzoqni ko'zlaydigan, kelajak uchun qayg'uradigan, otalarning yaqin yordamchisiga aylanadilar. O'quv faoliyati o'spirinning asosiy faoliyati bo'lib qolaveradi, o'qishga nisbatan o'smirlik Yoshiga qaraganda o'spirinlikda bir muncha yuqoriroq bo'ladi. Mustaqil hayotga tayyorgarligini o'z-o'zini anglashi bilan bog'liq motivlar bu davrda etakchi o'rinni egallaydi. Motivlar tizimida jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishga intilish, insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu davrda o'spirinlarning kelgusi hayoti va tanlayotgan kasbiy rejalariga ko'ra fanlarga nisbatan qiziqishlari o'zgaradi. O'spirinning fanlarga hamda shu fan o'qituvchilariga nisbatan munosabati o'zgaradi. O'spirinlik davrida o'zi ko'zlagan maqsadlariga erishishga asoslangan motivlar birinchi o'ringa ko'tariladi. O'smirlar o'zlarining o'qishga bo'lgan munosabatlari va ularning o'qish-o'rganishga undovchi sabablarni yaxshi anglaydilar. O'spirinlik yoshida boshdan kechiriladigan his-tuyg'ularning boyligi, xilma-xilligi bilan, hayotning turli tomonlariga emotsional munosabatda bo'lishi bilan ajralib turadi.

Ilk o'spirinlarning bilish jarayonlari shunday darajaga etadiki, kattalar bajaradigan barcha aqliy ishlarni bajarishga amaliy jihatdan tayyor bo'ladilar. Ularning bilish jarayonlari murakkab va egiluvchan bo'lib boradi. Ular bu Yoshga kelib jiddiy ishlarga ko'p vaqtlarini ajrata boshlaydilar, dam olish va o'yin-kulguga juda kam vaqt ajratadilar. Ularning barcha bilish jarayonlari, jumladan, xayol, xotira, nutq, tafakkur rivojlanadi. Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarining bilish jarayonlari turli nuqtai nazarlarni tahlil etishga va bu masala bo'yicha har tomonlama fikr yuritishga yordam bera oladi. Bilishga qiziqishning rivojlanishi, o'qishga ongli munosabatda bo'lishning o'sishi bilish jarayonlarining ixtiyoriyligini, ularni boshqara olish mahoratini yanada rivojlantirishga undaydi.

Bu yosh davrining oxiriga borib, o'quvchilar o'zlarining bilish jarayonlarini to'la-to'kis egallab oladilar, ularni hayot va faoliyatning muayyan vazifalariga bo'ysundiradilar. Ular axloqiy va siyosiy va boshqa mavzular bo'yicha erkin fikrlaydilar. Ilk o'spirinlarga umumiydan xususiyya, xususiyydan umumiyga xulosa chiqarish, ya'ni induksiya va deduksiya xosdir.

Ilk o'spirinlar ko'pchilik ilmiy tushunchalarni o'zlashtiradilar, turli masalalarni echish jarayonida ulardan foydalanishni o'rganadilar. Bu esa ularda nazariy yoki so'z-mantiq tafakkurning rivojlanganligini bildiradi. Kuzatish aniq maqsadga qaratilgan va yanada sistemali bo'lib boradi. Shaxsning kuzatuvchanlik xususiyati rivoj topadi. Xotirani rivojlantirishda mavhum so'z-mantiq xotira, ma'nosiga tushunib esda olib qolishning roli sezilarli darajada ortadi. Garchi ixtiyoriy xotira ustunlik qilsa-da, ixtiyorsiz esda olib qolish ham ilk o'spirinlar tajribasidan chiqib ketmaydi. U faqat o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi, ilk o'spirinlarning qiziqishlari, xususan ularning bilishga oid va kasb tanlashga oid qiziqishlari bilan ko'proq bog'lanadi. Shu bilan birga faol ravishda bilim egallash, o'qish va jamoat faoliyatida har holda ixtiyoriy xotira etakchi rol o'ynaydi.

Diqqatni ko'chirish va taqsimlash qobiliyati sezilarli ravishda rivojlanib, takomillashib boradi. Xususan, diqqatni taqsimlash bir vaqtning o'zida o'qituvchining tushuntirgan

narsalarini ham tinglash, ham yozib borish, o'z javobining mazmunini kuzatib borish mahoratining shakllanishida o'z aksini topadi. Ilk o'spirinlar o'quv ishlari jarayonida o'zlariga ta'sir qiladigan chalg'ituvchi narsalarga o'smirlardan ko'ra ko'proq qarshi turishga, bardosh berib engishga qobildirlar.

Ilk o'spirinlarning ayrimlarida diqqatning tanlovchanligi shu narsada ham ko'rinadiki, ular o'quv materialini idrok qilar ekanlar, hamma vaqt uning ahamiyatiga baho berishga, uni amaliy jihatdan ahamiyatliligi nuqtai nazardan idrok qilishga harakat qiladilar. Agar unga material muhim bo'lib tuyulmasa, u o'z diqqatini susaytiradi. Shunisi qiziqki, diqqatning bu o'ziga xos harakati ko'pincha atayin ro'y bermaydi. Odatda ilk o'spirinning diqqati shu sohadagi muayyan bilimlarni amalda tatbiq etish haqida gap borgan vaqtdagina ixtiyorsiz ana shu predmetga qaratiladi.

Bu yoshdagi o'spirinlar atrofdagi turli voqea-hodisalardagi haqiqatni bilishga intiladi. Ularni tayyor echimlar, ma'lumotlar emas, balki shu echim va ma'lumotlarni o'zlari mulohaza yurgizib, qidirish jarayonining o'zi ko'proq qiziqtiradi. Bu borada turli masalalar bo'yicha bahs va munozaralar yuritishga va o'zlarining fikrlarini isbotlashga juda qiziqadilar. Bu davrda bilish jarayonlarining rivoji faol ravishda davom etadi. Bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. Bu davrga kelib, o'spirinlar to'la ravishda mantiqiy tafakkurga ega bo'ladilar, nazariy fikr yuritib, o'zlarini o'zlari tahlil eta oladilar. Ular endi bema'lol axloqiy, siyosiy va boshqa mavzularda bahslasha olib, o'z munosabatlarini bildiradi oladilar. O'spirinlik davrida bolalar juda ko'p ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib, ulardan turli masala va muammolarni engishda foydalana oladilar. O'spirinning o'z-o'zini anglashi o'quv, mehnat va muloqot motivatsiyalarini o'zgarishida o'z aksini topadi. Bu davrda, bolada yangi faoliyatlar yuzaga kelib, psixik rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi.

Xulosa. Ilk o'spirinlik davrini kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi uchun sezitiv davr deb hisoblash mumkin. O'zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto'g'ri hal etilishi murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qiz hayoti uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o'spirinlar o'z moyilligi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan, nerv sistemasining tipi, analizatorlar xususiyati emotsional-irodaviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.

O'spirinlar o'z kuzatishlarida parishonxotir bo'lmasliklarini, kuzatishni o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarga bo'ysundirishlarini, etarli darajada to'plangan faktlar to'planmaguncha xulosa chiqarishga shoshilmasliklarini nazorat qilib borish zarur. Ilk o'spirinlarning o'quv faoliyati ularning faolligi va mustaqilligiga ancha yuqori talablar qo'yadi. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji dasturida belgilangan materiallarni o'zlashtirish uchun nazariy tafakkur rivojlangan bo'lishi hamda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini egallash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.G.Davletshin umumiy tahriri ostida. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya: Ped. in-t. talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1974.

2. E.Goziev. "Psixologiya" T. 1994
3. M.V.Voxidov. "Psixologiya" T. 1981
4. A.I.SHcherbakov taxriri ostida. "Yosh psixologiyasi va pedagogik-psixologiyadan praktikum". T. "O'qituvchi"1991